

Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning Iqtisodiyot Rivoji Uchun Qo'shgan O'rni Va Qilgan Ishlari

Qaxramonova Nasiba Jaloliddin qizi

Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola o'zbek demokratik adabiyotining XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashab, ijod qilgan Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning adabiyotlaridagi iqtisodiy qarashlarini o'rganishga qaratilgan. Shuningdek, iqtisodiyotga qiziquvchilarning adabiyotni o'rganishga bo'lgan talabi va afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Qolaversa, maqolada Muqimiyning gazeta nashriyotlarida bo'lgan faoliyati va asarlari haqida bilishingiz mumkin.

Kalit so'zlar: qo'lyozma asarlar, davlat boshqaruv, jadidlar, matbuot, adabiyot, to'plamlar, nashriyot.

KIRISH. Mustaqillik yillarida jamiyatimiz hayotining ko'pgina sohalarida, xususan: ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy yo'nalishlar, ma'naviyat va ma'rifat tarixini o'rganishda ham davlatchiligimiz tarixida yangi izlanishlar olib borishga keng yo'l ochildi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil 18-aprelda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida Adiblar xiyoboni tashkil etish bo'yicha qarori qabul qilindi va 2020-yil 2-may kuni Prezidentimizning tashrifi davomida Adiblar xiyoboni rasman ochildi. Hozirgi kunda Adiblar xiyobonida 24 ta adiblarimizning haykali o'rnatilib, 24 ta oliy ta'lim muassasi tomonidan bu adiblar ijodi o'rganiladi, targ'ibot ishlari olib boriladi va adibning ijodi bo'yicha turli xil loyihalar, uchrashuvlar o'tkaziladi [1]. Ushbu oliy ta'lim muassasalari ichida Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti esa Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganib, talaba-yoshlar uchun ham qiziqarli bo'lgan tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishni, ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmogda. 1850-yilda tavallud topgan buyuk adib Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning shoir gina bo'lmasdan, men uchun tarixchi, iqtisodchi ham hisoblanadi. Shoirning hayot yillari boshqa yozuvchi va shoirlardan farq qilgan. Muqimiyning tafakkuri va intilishlari bilan muhit o'rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo'nalishni maydonga keltirib chiqargan [3].

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Muqimiy chor amaldorlarning yoki mahalliy ayrim boylarning kirdikorlariga befarq qara olmaganidan, ularning kirdikorlarini o'z satiralarida yoritib bergan. Bugungi kunda Muqimiyning hayoti va ijodini o'rganish, targ'ibot qilish, tahlil qilish o'zining shaxsiyatini yaratmoqchi bo'lganlarga, ayniqsa, iqtisodchi kadrlar o'rganishi ahamiyatga ega. Faryodkim, garduni dun aylar yurak bag'rimni xun, Ko'rdiki, bir ahli funun -charx anga kajraftor ekan. «Ultarma»ga qildim yurush, yo'ldosh edi bir chitfurush, Yetdim jadallab vaqti tush, bir dam qiziq bozor ekan [4]. Yuqorida ta'kidlanganidek, Muqimiyning ijodini o'rganish orqali siz iqtisodiy ko'nikmalarizni ham oshirib borasiz. Negakim, Muqimiy o'z davrining aholisini qiyinchiliklarini, iqtisodiy va ijtimoiy holati haqida to'xtalgan, soliqlarni va lavozimini suis'temol qilgan amaldorlarga alohida urg'u berib o'tgan. Shoir ta'kidlashicha, soliqlarning juda yuqori bo'lganligi, xalqning turmush tarzini og'irlashtirgan omillardan biri bo'lgan. Agar shunaqa soliqlarning oshishini tarafini olishmasa, ocharchilik yoki jamiyat tanazulliga sababchi bo'lishini ta'kidlab o'tgan. Uning bu iqtisodiy qarashlari hattoki hozirgi davrda ham o'z kuchiga egadir. Muqimiyning iqtisodiyotga doir asarlaridan biri "Veksel" ni ham misol tariqasida keltira olamiz [2].

Bu asarda adib mamlakatga kirib kelgan vekseldan amaldorlar o'z manfaatlarini ortida qo'llashlari va keltirib chiqargan muammolar haqida yozgan. Shoir ijtimoiy-siyosiy hajviyotning asoschilaridan biri sifatida o'zbek adabiyoti tarixidan alohida o'ringa ega. Uning ko'pgina hajviyalari, masalan, "Tanobchilar", "Voqeayi ko'r Ashurboy hoji", "Moskovchi boy" kabi asarlarini shu yo'nalishning yetuk namunalari sifatida ko'rish mumkin. Muqimiy shu kabi hajviy asarlarida mustamlaka tuzumi uchun xos bo'lgan hayotiy mavzular — jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmron adolatsizlik kabi juda jiddiy masalalarni ko'rib chiqadi. Bu esa shoir hajviyasidagi siyosiy yo'nalish va g'oyaviy kamolotdan dalolat beradi [5]. Masalan, shoirning "...chustiylar bizlar" deb yakunlanuvchi ushbu satrlarida jamiyatni yemirayotgan og'ir illatlar qoralanganini ko'rish mumkin: Muallimni quvib maktabni yopgan chustiylar bizlar, Berib pora prostavlarni topgan chustiylar bizlar. Duo qilsun deduk – yosh qizni sotdik oqsoqollarga, Va lekin qilg'uchi olamni vayron chustiylar bizlar. Qolaversa, kuchli iqtisodchi bo'lish uchun nafaqat iqtisodiyot haqidagi adabiyotlarni o'qib o'rganish, balkim, shaxs sifatida kamolot topish uchun xalqni talab qilayotgan muhim omillari, rahbar shaxsiyati va vatanparvarlik tuyg'ularini tushunib yetish ham lozim. Zerokim, Navoiyning ham ta'kidlashi bo'yicha, vatanparvarlik hissiyoti mamlakatning siyosiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, iqtisodiy barqarorlashtirish uchun muhim hisoblanadi. Muqimiy esa jamiyat farovonligini o'zining yaxshi yashashidan ham ustun qo'ygan. Shoirning asarlarida xalqning umumbashariy qadriyatlariga, an'analariga to'xtalib o'tganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Ijodkorning asarlarida optimism ruhini his qilishimiz mumkin [8].

Garchi shoir mustamlaka jamiyatning og'ir, adolatsiz holatini tasvirlashda ham farovon va tinch hayotni orzu qilganligini sezishimiz mumkin. Muqimiy asarlarida qattiq ziddiyatlarni qanchalik erkin va xolisona tasvirlay olishi insonni qoyil qoldiradi. Ijtimoiy holatni haqqoniy yoritib berish shoir o'z oldidagi burch hisoblangan. Chunki amaldorlarning qilayotgan bunday nohaqlik va adolatsizliklarini yoritishda, shoir yomon fazilatlarini qoralab o'tish bilan birga, yoshlarni yaxshi fazilatlar egasi bo'lishiga chorlagan. Insonlarning nafs va xudbinlik, nadomat va shikoyat, zulm va qoloqlik ko'rinishlarini tanqid qilgan. Kamolotga yetish uchun ezgu fazilatlar: adolatlilik, halollik, to'g'rilik, o'ziga va kelajagiga bo'lgan ishonch, vatanparvarlik va osoyishtalikni sevuvchi fazilatlarini ustuvor tutgan. Shuningdek, Muqimiyning ko'pgina asarlari ustoz deb bilgan mir Alisher Navoiyning asarlariga o'xshab sevgi bilan bog'liqdir. Muqimiy bizga sevgi tuyg'usini ta'riflab berar ekan, insonni sevgisiz tasavvur qilib bo'lmasligini, sevgi insonning ruhiy hayotining qismi ekanligini aytib o'tgan. Muqimiyning ijodlarini nashriyotlarda ham uchratishimiz mumkin. Misol uchun 1901, 1903 va 1907-yillarda "Turkiston viloyatining gazetasi" sonlarida Muqimiyning turli janrdagi she'riy to'plamlarini keltira olamiz. Bu she'rlar ichida Muqimiyning she'rlar nusxasi boshqa birorta manbalarda uchramaydi. Xususan, "Andijon zilzilasi" va "Xo'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur" asarlarini keltira olamiz [7].

XULOSA. Bu bizga, gazeta nashriyotlarning qanchalik muhimligi va boyligini ko'rsatib beradi, chunki shu nashriyotlar bo'lmaganida edi, biz N.Ostroumovning toshbosma bayozdagi ba'zi she'riy go'zalliklarning o'quvchisi bo'la olmasligimiz mumkin edi. Muqimiyning yana bir hajviy, 6 bandli muhammas janridagi "Hajvi Bekturboy" asari "Записки Восточного отделения императорского Русского Археологического общества" to'plamining tomlarining birida ko'rishimiz mumkin. Bu to'plam XXV ta tomlardan tashkil topib, 1894-1896-yillarni o'z ichiga olgan IX tomida Muqimiyning shu asarini uchratishimiz mumkin [10]. Muqimiyning vafotidan so'ng ham uning asarlari xalq og'zidan tushmadi va ijodi chuqur o'rganala boshladi. Shunday insonlardan biri N.Ostroumov "Devoniy Muqimiy" to'plamini nashr qilishi bilan boshlandi. 1912-yilda esa Toshkentdagi "G'ulomiya" litografiyasida esa Muqimiyning "Mekuni yo ne?" sarlavhali fors-tojik tillarida yozilgan muhammasi berilgan. Hatto hozirgi davrda ham Muqimiyning ko'plab asarlari chuqur o'rganilib, hali hamon u haqida asarlar, filmlar va she'rlar yozib kelinmoqda. Shunday bir ajoyib she'rlardan biri: Mashhurlik emas hos menga, yomonlik ila Bir jumla bor Muqimiydan, odamiylik deya Haqiqiy musulmon inson qilmaydi o'zgalarga deya Qo'li birla tili ichra, qilmaydi zulm boshqalarga deya So'z yakunida aytadigan bo'lsam, Muqimiy o'z asarlari ortidan bizga mustamlakachilik davrining ahvoli, qiyinchiliklari, ijtimoiy-iqtisodiy qarashlarini va insonning fazilatlarini, vatanni sevishni yoritib olgan. Yurt ravnaq topish yo'lida adabiyotning o'rni beqiyos

hisoblanadi [12]. Muqimiyning hayoti va ijodi doim insonlar uchun vatanparvalik namunasi bo‘lib qolaveradi. Bizgacha yetib kelgan ko‘plab she‘riy va nasriy maktublar tariximiz va o‘zligimizni anglash uchun nafaqat bebaho hujjat, balki shoirlarimizning dunyoqarashini, ularning davridagi adabiy hayotini o‘rganishda ham boy ma‘lumot manbai hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov G'. Muqimiy ijodiy merosining manbalari. Muqimiy. Asarlar to‘plami. – T.: 1960, II tom, 169-bet.
2. Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества (1887—1921) – IX tom
3. Q. Pardayev Muqimiy lirik asarlarining matniy-qiyosiy tahlili – 76-bet
4. Melikulova B. Tashabbus qanot yozdi: Muqimiy ijodi izidan...O‘zA. 2020 yil.
5. М.М.С,Мировая Культура, Неповторимая Литература В Памяти Великого Поэта Мухаммада Аминхужа Мукимий
6. G‘afur G‘ulom. Muqimiy Tanlangan asarlar: uzdavlatnashr, 1953.
7. М. М. С. Творчество Мукими как современный литературный текст находится в образе сегодняшних проблем. Central asian journal of theoretical and applied science, 2(4), 127-129.
8. М. М.С. The role of writers and poets in the study of Muqimi's work and their views on Muqimi. In e-conference globe (pp. 170-172).
9. М. М. С.(2021). Peculiarities of muqimi's work and its significance. Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2(3), 75-77.
10. G‘ofur G‘ulom, “Tanlangan asarlar”. Toshkent-1953.
11. G‘ulom Karimov., “Muqimiy”, t.:“manaviyat”.2009
12. Karimov F., Mukimiy. Hayoti va ijodi, t., 1970
13. Muxlisa Satriiddinova Muhitdinova, Muqimiy ijodiga bir nazar, pedagogs jurnali, retrieved from <https://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/2023>
14. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Muqimiy>
15. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/05/20/alley/>
16. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nikolay_Ostroumov